



IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 201 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellash (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar	75
Raximov Shoxrux Furqatovich	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari	78
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari.....	82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
The role of global value chains in international trade competition.....	85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития.....	88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи	



Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches.....	90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli	
Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi.....	93
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish.....	97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish	102
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama	
Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi	105
Ismailov Najmiddin Ilxamovich	
Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari.....	108
Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari.....	111
Komilov Muhammad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi.....	115
Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari	118
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari	122
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari	127
Bobonov N.H.	
Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность	131
Гулнора Казимова	
Literature is a reflection of the soul and culture of humanity	136
Sayidova Sayyora Yorikulovna	
Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar	140
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar	142
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	145
Umida Kakhramonova Gayratovna	
Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	149
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash.....	153
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
Shahar aglomeratsiyasining sifatini ekologik va geologik mezonlar asosida kompleks baholash.....	155
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Sanoatda korxonalarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash	160
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tengsizliklarni kamaytirish usullari.....	165
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Tog' yon bag'rida joylashgan kon uymlarini ochiq usulda qazib olish xususiyatlari.....	174
I.T. Mislibayev, M.Sh. Ochilova	
Milliy iqtisodiyotda turizmning o'rni va rivojlanish imkoniyatlari.....	176
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
China insurance market experience	178
Jumaboyev Akmal Sheraliyevich	



Tijorat banklarida moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari.....	181
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Bank tizimida buxgalteriya hisobotlarida axborot texnologiyalarining roli va rivoji.....	185
Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li	
Samarali loyiha risklarini boshqarish: nazariya va amaliyot.....	189
Nosirova Gulira'no Abdulaziz qizi	
XXI-asrda Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti: sohaviy islohotlar, yutuqlar va muammolar tahlili.....	192
D.E.Qarshiyev	
Boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarda natijadorlikka erishishning muhim omilidir	195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	



BOSHQARUV HISOBINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARINI JORIY ETISH XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA NATIJADORLIKKA ERISHISHNING MUHIM OMILIDIR

Xoshimov Baxrom Baxadirovich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

baxrom.akrombek@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-5697-2552>

Annotatsiya: Maqolada boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalari tahlil qilingan va ularni mamlakatimiz korxonalarida joriy etish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, konsepsiya, hisob, sikl, kalkulyatsiyalash, jarayon, budjetlashtirish, strategik, qiymat, kanbanlar, "Olti sigma", balanslashgan, karta, kuchli, kuchsiz taraflar.

Abstract: The article analyzes modern concepts of management accounting and explores the issues of their implementation in enterprises of our country.

Key words: management, concept, accounting, cycle, costing, process, budgeting, strategic, value, kanbans, "Six Sigma", balanced, scorecard, strengths, weaknesses.

Аннотация: В статье проанализированы современные концепции управленческого учета и исследованы вопросы их внедрения на предприятиях нашей страны.

Ключевые слова: управление, концепция, учет, цикл, калькулирование, процесс, бюджетирование, стратегический, ценность, канбаны, «Шесть сигм», сбалансированная, карта, сильные, слабые стороны.

KIRISH

Zamon shiddat bilan o'zgarib, dunyo miqyosida manfaatlar kurashi va raqobat tobora avj olib borayotgan bir paytda, taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlari aniq-ravshan belgilab olingani natijasida o'tgan yilgi natijalar ham salmoqli bo'ldi. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilgani natijasida iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishdek oliy maqsadga erishish uchun barcha sohalaridagi islohotlar ilm-ma'rifat va innovatsiyaga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Kelgusi yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalar raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarni jadal davom ettirish hamda uni yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishga qaratilgandir.

Ushbu islohotlarni amalga oshirishda boshqaruv hisobi zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiyalar boshqaruv hisobi evolyutsiyasining 3–4-bosqichlarida paydo bo'lgan bo'lib, hozirgi kunda ular keng rivojlanmoqda.


Boshqaruv hisobining mazkur istiqbolli konsepsiyalari an'anaviy modellar kamchiliklarini bartaraf etish bilan birga, eng avvalo, kompaniyaning qiymatini maksimallashtirishga yo'naltirilgandir. Uning asosiy maqsadi – nafaqat hisobot davrida yuqori natijalarga erishish, balki korxonaning istiqbolda barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beruvchi axborotni shakllantirishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1987-yil – xorijlik iqtisodchi olim R. Kuper tomonidan e'lon qilingan xarajatlarni funksional hisobi (AVS) konsepsiyasiga ko'ra, korxonada mablag'lar yakuniy mahsulot tomonidan emas, balki uni ishlab chiqarishda

qatnashadigan jarayonlar tomonidan iste'mol qilinadi. AVSning asosiy vazifasi – mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan jarayonlarni aniqlash, ularning qiymatini belgilash va tegishli mahsulotlarga taqsimlashdan iboratdir.

(1- chizma).



1-chizma. ABC tizimi hisobi.

Hayotiy sikl asosida kalkulyatsiyalash (Lifecycle Costing) – 1991-yil A. Bximani va M. Bromovich tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu yondashuv mahsulot qiymatini haqqoniy baholashda uning hayotiy siklining barcha bosqichlarida yuzaga keladigan xarajatlarni hisobga olishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda korxonalarda xarajatlarning asosiy qismi yangi mahsulotni yaratish, loyihalash va uni bozorga olib chiqish bosqichlariga to'g'ri keladi. An'anaviy hisob-kitoblarda esa ushbu bosqichlarga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Maqsadli xarajatlar tizimi (Target Costing) – foyda olishni ta'minlash uchun yangi mahsulotlarni yaratish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, istiqboldagi xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv mahsulotni bozor bahosidan oshmaydigan narxda sotish mumkin degan tamoyilga asoslanadi. Avvalo, mahsulot turiga nisbatan bozor bahosi aniqlanadi, keyin ko'zda tutilgan foyda miqdori hisoblab chiqiladi va shundan kelib chiqib, erishilishi lozim bo'lgan tannarx belgilanadi.


Jarayonlarni boshqarish metodi (Activity Based Management – ABM) – xaridorlar uchun qiymat yaratishni kuchaytirish orqali korxona foydasini oshirish imkonini beradi. ABM "jarayonga yo'naltirilgan boshqaruv" tarzida talqin qilinadi. Bu tizim kompleks va integrallashgan yondashuv bo'lib, menejerlarni korxona foydasini ko'paytirish maqsadida e'tiborni jarayonlar (funktsiyalar)ga qaratishga undaydi. ABM usuli AVS (Activity Based Costing) metodidan farq qiladi, biroq ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

AVS metodi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va jarayonlar qiymatini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlari A. Ibragimov, B. Xasanov va N. Rizayevlar bu borada quyidagi fikrni bildirganlar: "Korxonalarda xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasining zamonaviy usul hamda tizimlarini qo'llash ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini to'g'ri aniqlash, chetlanishlar hisobi va tahlilini yuritish imkonini beradi".

Jarayonli yo'naltirilgan budjetlashtirish (AVV) esa quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Kelgusi yil uchun mo'ljallanayotgan ishlab chiqarish darajasi va sotish hajmlarini mahsulotlar hamda mijozlar kesimida prognozlashtirish.
2. Ushbu rejalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlarni prognoz qilish.
3. Jarayonlarni bajarish uchun talab etiladigan mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.
4. Ushbu ehtiyojlarni qoplash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar miqdorini belgilash.
5. Jarayonlarning amaldagi (haqiqiy) moliyaviy sig'imini aniqlash.

(2-chizma)




2-chizma. Jarayonga yo'naltirilgan budjetlashtirish (mahsulotdan mablag'gacha bo'lgan

bosqichlarni qamrab oladi)

Strategik boshqaruv metodologiyasi (SCM – Supply Chain Management) 1996-yil G'arbiy Yevropada shakllangan bo'lib, bu yondashuv qo'shimcha qiymatni yagona zanjir sifatida boshqarishga asoslangan. Mazkur metodologiyada xomashyo va materiallar kompaniya brendi hamda xaridorlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ma'lum bir qiymatga ega mahsulotga aylantiriladi. SCM metodida qiymat zanjiri izchil tartibda boshqariladi, bunda asosiy e'tibor kompaniya qiymatini samarali boshqarish hamda innovatsion menejmentga qaratiladi.

Strategik biznes-birliklar (SBE – Strategic Business Units) konsepsiyasi (3-chizma) strategik boshqaruv tahlilining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. SBE texnologiyasining muhim bosqichi – korxonani alohida strategik biznes-birliklarga ajratish va ularning istiqboldagi imkoniyatlarini bozor talablariga moslashtirishdan iboratdir. Bu esa boshqaruv tahlili sifatiga hamda qabul qilinadigan qarorlarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

(3-chizma)



3-chizma. Tarmoqli tipdagi boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi

Strategik biznes-birliklar (SBE) konsepsiyasi – “biznesimiz bugungi kunda qanday holatda va kelajakda uni qanday ko'rinishda tasavvur qilamiz?” degan savollarga aniq javob topishga imkon beradigan strategik yondashuvdir. Ushbu konsepsiya orqali korxonani alohida strategik segmentlarga ajratish hamda har bir segmentning istiqbolli yo'nalishini aniqlash mumkin bo'ladi.

“Olti sigma” – bu sifatni uzluksiz boshqarishga asoslangan boshqaruv texnologiyasi bo'lib, korxonada jarayonlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan falsafalardan biridir. “Olti sigma” texnologiyasini joriy qilayotgan kompaniyalar, eng avvalo, mijozlar qoniqish darajasini baholash, ish sifatini barcha bo'limlar bo'yicha uzluksiz oshirib borish va eng muhimi – mukammal ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ma'muriy jarayonlarni tatbiq etishga qaratilgan yagona maqsadni ko'zlaydi.

“O‘z vaqtida” yoki “Kanban” boshqaruv texnologiyasi – biznes logistikasi va yetkazib berish zanjirini optimallashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu texnologiya partiyaviy asosda oqimli ishlab chiqarish tizimida, ishchilarni yoppasiga sifat nazoratiga jalb etgan holda, uzluksiz ritmga ega bo‘lgan ommaviy ishlab chiqarish jarayonlariga o‘tishni nazarda tutadi.

“Kanban” – bu ishlab chiqarish buyurtmalari uchun yaponcha kartochka bo‘lib, unga quyidagi qoidalar tatbiq etiladi:

P-kanbanda ko‘rsatilganidan ortiqcha hech narsa ishlab chiqarilmaydi;

Har bir konteynerda aniq bitta P-kanban va bitta S-kanban bo‘lishi kerak;


Har bir konteyner standart o‘lchamda bo‘lishi lozim.

Mazkur texnologiyani joriy etish orqali ishlab chiqarishning har bir bosqichida zaxiralar qoldig‘ini nazorat qilish, uskunalar buzilishi sababli yuzaga keladigan to‘xtashlarning oldini olish, shuningdek, bir bo‘limdagi uzilish butun ishlab chiqarish jarayonining to‘xtab qolishiga olib kelmasligini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

“Cheklovlar nazariyasi” (TOS – Theory of Constraints) zamonaviy korxonalarda uchraydigan muammolardan biri – ishlab chiqarish quvvatlarining doimiy band emasligi tufayli resurslardan to‘liq foydalana olmaslik holatini bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu nazariya asosida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi hamda ular orqali natijalarning maqsadga muvofiqligi baholanadi.

“Muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi” (BSC – Balanced Scorecards) 1996-yil professor R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu yondashuv boshqaruv hisobini an‘anaviy doiradan chiqaradi. BSC konsepsiyasining asosiy vazifasi – korxonaning ko‘plab strategik maqsadlarini aniqlash, izohlash va ularni o‘zaro uyg‘un tizimga keltirishdir. Bu tizim orqali korxona missiyasi va strategiyasi ularning aniq, o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanadi hamda amaliy maqsadlar tizimiga aylantiriladi.

(4 - chizma).



4–chizma. BSC konsepsiyasining chizmasi

BSC konsepsiyasida yuqori bo‘g‘indagi menejerlarning vazifa va ko‘rsatkichlari integrallashgan ko‘rinishda, past bo‘g‘indagi menejerlarning vazifa va ko‘rsatkichlarini tasvirlaydigan darajada tashkil etiladi.

Shunday qilib, barcha tarkibiy bo‘linmalar faoliyati korxona strategiyasi asosida balanslashtirilgan ko‘rsatkichlarni rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish va tahlil etish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, xodimlar ushbu strategik maqsadlarga erishishga qiziqtiriladi.

Agar an‘anaviy rejalashtirish tizimi “strategiya – budjet – rejalashtirish va qarorlar qabul qilish – baholash va tuzatishlar kiritish” zanjiri asosida yuritilsa, “balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi”da esa quyidagi tamoyil asos bo‘ladi: strategiya – balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi – strategiyani takomillashtirish.

Mazkur tizim 1996–yil professor R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagi to‘rtta muhim istiqbolli ko‘rsatkichlar orqali shakllantiriladi:

moliyaviy natijalar,

iste‘molchilar holati,

ichki biznes-jarayonlar,

malaka oshirish va lavozim o‘shirishni ta‘minlovchi omillar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish bilan bog‘liq amaliyotlar o‘rganildi. Ma‘lumotlar ilmiy-adabiy manbalar tahlili hamda ilg‘or xorijiy va mahalliy tajriba asosida tanlab olindi.



Tahlil jarayonida kontent tahlili va taqqoslash usullaridan foydalanildi, konsepsiyalarning samaradorlikka ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

BSC konsepsiyasida harakatlar strategik karta ko'rinishida ifodalanadi.

Ushbu tizimni joriy etishda xorijiy olimlar "balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi korxona strategiyasidan kelib chiqib ishlab chiqilishi va har bir kompaniya uchun individual xususiyatlarga ega bo'lishi kerak", deb alohida ta'kidlab o'tganliklarini unutmaslik zarur 222.

Strategik tahlilning keng qo'llaniladigan metodikalari quyidagilardir:

SWOT-tahlil,

PEST+M-tahlil,

mahsulot portfeli tahlili (BCG matritsasi yoki McKinsey matritsasi).

SWOT-tahlil – bu kompaniyadagi real holatni aniq tasvirlab beruvchi hamda istiqbolda rivojlanishning strategik yo'nalishlarini belgilashga yordam beruvchi tahlil vositasidir. Ushbu tahlil asosiga ko'ra, strategiyani ishlab chiqishda kompaniya faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ichki va tashqi, ijobiy va salbiy jihatlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi.

O'zaro raqobatlashuvchi firmalar o'rtasida bir xil asosiy ko'rsatkichlarni taqqoslash amaliyoti G'arbda "benchmarking" atamasi bilan nomlanadi. Iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlarini raqobatchilar yoki sohaning yetakchi xalqaro kompaniyalari bilan taqqoslash natijasida korxona faoliyatining "zaif" va "nisbatan kuchli" tomonlari aniqlanadi. Bu esa bozorning hanuz egallanmagan qismini topish, ishlab chiqarish va texnik kooperatsiya bo'yicha istiqbolli hamkorlarni aniqlash, boshqa firmalar bilan birlashish orqali qo'shimcha ustunliklarga erishish imkonini beradi.

Ichki muhit omillaridan kompaniyaning kuchli va kuchsiz tomonlari alohida ajratib ko'rsatiladi. "Kuchli" va "kuchsiz" tushunchalari nisbiy bo'lib, ularni to'g'ri baholash uchun raqobatchilarning o'xshash ichki omillari bilan taqqoslash zarur.

SWOT-tahlil PEST+M-tahlili formatida yanada batafsil tahlil qilinadi. Unda tashqi muhitning quyidagi besh guruhga ajratilgan omillari ko'rib chiqiladi:

siyosiy (P),


iqtisodiy (E),

ijtimoiy (S),

texnologik (T),

bozorni o'rab turgan muhit (M).

(5-chizma)



5-chizma. SWOT-tahlilning PEST+M-tahlil formati asosida detallashtirilishi

Mazkur guruh tarixan shakllangan bo'lib, uni G'arb kompaniyalarida menejment rivojlanish darajasini kuzatish orqali yaqqol ko'rish mumkin.

Strategik tahlilni o'tkazishda eng muhim masalalardan biri kompaniyaning istiqboldagi mahsulot portfeli aniqlashdir. Buning uchun kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, ularni moliyalashtirish manbalari



hamda istiqboldagi bozordagi mavqeini belgilovchi aniq ma'lumotlarga ega bo'lish zarur.

Shu sababli, strategiya ishlab chiqishda ikki metodikadan biri – Boston Consulting Group (BCG) yoki McKinsey matritsasidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu metodikalarga muvofiq, kompaniyaning barcha biznes yo'nalishlari "bozorning jozibadorligi" hamda "kompaniyaning mazkur bozordagi raqobatbardosh mavqe" mezonlariga asoslanib baholanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilganlar boshqaruv hisobining so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan konsepsiyalaridan faqatgina bir qismini tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, mazkur konsepsiyalarning barchasi hali amaliyotda to'liq qo'llanilayotgani yo'q. Biroq, boshqaruv hisobi bo'yicha ko'plab yangi konsepsiyalarning shakllanayotgani ushbu sohaning nazariy rivojlanishida yangi bosqich boshlanganidan dalolat bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarning samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. ABC, ABM, Target Costing, BSC kabi konsepsiyalar orqali korxona faoliyatini chuqur tahlil qilish, qiymat zanjiri bo'yicha resurslardan oqilona foydalanish va bozor talablari asosida harakat qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa nafaqat qisqa muddatli natijalarga, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Korxonalarda boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilsin va bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilsin.

Mutaxassislar uchun "Olti sigma", BSC va Target Costing kabi usullar bo'yicha amaliy seminar va treninglar tashkil etilsin.

Zamonaviy boshqaruv hisobini axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali tahlil va hisobot jarayonlari avtomatlashtirilsin.

Mahalliy sharoitga moslashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, korxonalarga amaliy yordam sifatida taqdim etilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amaliy boshqaruv hisobi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / A.K. Ibragimov, B.A. Xasanov, N.K. Rizayev. – T.: "Moliya", 2014. – 369 b.
2. Garrison R., Norin E., Bryuer P. Upravlencheskiy uchët. 12-ye izd. / Per. s angl. pod red. M. Karlika. – SPb.: Piter, 2012. – 442 s.
3. Mizikovskiy I.Ye. Buxgalterskiy upravlencheskiy uchët: Uchebnoye posobiye / I.Ye. Mizikovskiy. – M.: Magistr, 2018. – 368 s.
4. Upravlencheskiy uchët: Uchebnoye posobiye / Pod red. Sokolova Ya.V. – M.: Magistr, 2018. – 608 s.
5. Chaya V.T. Upravlencheskiy uchët: Uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata / V.T. Chaya, N.I. Chupaxina. – Lyubersy: Yurayt, 2016. – 332 s.
6. Chupaxina N.P. Perspektivy razvitiya upravlencheskogo ucheta. Statya. *Audit i finansovyy analiz*, 2/2007.
7. Xorngren Ch., Foster Dj., Datar Sh. Upravlencheskiy uchët. 10-ye izd. – SPb.: Piter, 2005. – 1008 s.
- 8.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
